

O‘ZBEK TILI SEMANTIK ANALIZATORIDA POLIFUNKSIONAL SO‘ZLARNING O‘RGANILISHI

Usmonova Shahnoza Alisher qizi

TAFU 1-bosqich magistranti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikdagi polifunksionallik hodisasi nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zbek tili semantik analizatorlarida polifunktional so‘zlarni lingvistik modellashtirishning dolzarbligi, yechimini kutayotgan muammolari va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Polifunktionallikning o‘zbek tili tahliliga ta’siri, mavjud yondashuvlar va kelgusidagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Semantik analizator, polifunktional so‘zlar, lingvistik modellashtirish, o‘zbek tili, kontekst, sintaktik tahlil, morfologik tahlil, korpus.

Bugungi kunda o‘zbek milliy korpusida polifunktional so‘zlarning o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega . Zamonaviy kompyuter texnologiyalariga polifunktional so‘zlarning tushunarli qilib yetkazib berilishi ham polifunktional so‘zlarning o‘rganilishi zarurligini ko‘rsatadi . Avvalo , o‘zbek milliy korpusini tashkil etuvchi lingvistik protsessor haqida gapiradigan bo‘lsak , tizim axborot transformatsiyasini uch darajasini o‘z ichiga oladi: morfologik, sintaktik va semantik.¹ Birinchi navbatda morfologik so‘ngra sintaktik va semantik tahlil amalga oshiriladi.Polifunktional so‘zlarning o‘rganilishida semantik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, polifunktional so‘zlar kontekstdagi ma’nosiga ko‘ra aniqlanadi.Shu o‘rinda morfologik tahlil jarayoni imloni tuzatish vositalari,mashina tarjimasi tizimlari va elektron lug‘atlar kabi tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarining muhim tarkibiy qismidir.Polifunktionallik turli kontekstda turli vazifalarda keladi. Quyida polifunktional so‘zlarga misollar keltirildi:

| so‘z | ma’nosi | So‘z turkumi |
|----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|
| bemahal | 1.kech tun payti 2.nomuvofiq ,nomaqbul | ➡ ot ➡ Ravish |
| batartib | 1.tartibli,muayyan tartibga keltirilgan o‘z o‘rnida joylashgan saranjom sarishta 2.ma’lum tartibga amal qilgan holda,tartibli ravishda | ➡ sifat ➡ ravish |

¹ Sh.Gulyamova “Til ta’lim va tarjima 32bet”

| | | |
|-------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| balki | 1.zid ma'noli gaplarni gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash 2.kirish so'z gumon,taxmin ma'nolarini bildiradi |  bog'lovchi  modal |
|-------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Batartib so'zi ishtirok etgan quyidagi gaplarda uning vazifalarini ko'rish mumkin.

1.Deraza yonidagi karavotda harakatsiz yotgan uy xojasi Shokir devordagi osig'liq suratlarga,javonda batartib terilgan choynak-piyolalarga tikila turib entikdi.

2.Akbarali guruhimizdagi ancha batartib, xati chiroyli o'zi ham kelishgan yigit edi.

1- gapda ravish so'z turkumi vazifasida ,2-gapda sifat so'z turkumi vazifasida kelgan bo'lsa ham ma'nolari bir-biriga uzviy bog'langan va ikki so'z turkumi doirasida polifunksionallikni ifodalaydi.Polifunksionallikni aniqlashning mavjud yondashuvlari an'anaviy detirimistikaga bo'linadi , ya'ni lokal va global sintaktik tahlil, sintaktik lug'at va ehtimolliklarga asoslanadi.² Polifunksional so'zlarni aniqlash deganda asosan ularning kontekstdagi ma'nolarini aniqlash va qaysi so'z turkumiga taaluqli ekanligi farqlash tushuniladi. Polifunksionallikning o'zbek tili tahliliga ta'siri:

Polifunksional so'zlarning mavjudligi o'zbek tili matnlarini avtomatik tahlil qilishda bir qator qiyinchiliklarni tug'diradi:

- Grammatik noaniqlik: Bir so'zning turli grammatik kategoriyalarga tegishli bo'lishi POS-tagging (part-of-speech tagging) jarayonida xatoliklarga olib kelishi mumkin.

- Sintaktik tahlil: So'zning grammatik kategoriyasi va ma'nosi aniq bo'lмаган holda, gapning sintaktik tuzilishini to'g'ri aniqlash qiyinlashadi.

- Semantik tahlil: Gapning ma'nosini to'g'ri tushunish uchun so'zlarning to'g'ri ma'nolarini aniqlash zarur. Polifunksionallik bu jarayonga xalaqit beradi.

Mavjud yondashuvlar:

O'zbek tili semantik analizatorlarida polifunksional so'zlarni modellashtirish uchun turli xil yondashuvlar qo'llaniladi:

- Qoidalar asosidagi yondashuv: Tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida so'zlarning grammatik kategoriyalari va ma'nolari aniqlanadi.

- Statistik yondashuv: Annotatsiyalangan matn korpuslariga asoslangan statistik modeldar yordamida so'zlarning grammatik kategoriyalari va ma'nolari aniqlanadi.

- Mashinalarni o'rgatish yondashuvi: Mashinalarni o'rgatish algoritmlari yordamida (masalan, chuqur o'rganish) so'zlarning grammatik kategoriyalari va ma'nolari aniqlanadi.

² Xolisa Ahmedova[statistic usullar yordamida polifunksional so'zlarni semantic farqlash 2024.29]

- Gibrid yondashuv: Qoidalar asosidagi va statistik yondashuvlarning kombinatsiyasi.

Yechimlar va kelgusidagi tadqiqotlar yo'nalishlari:

Polifunksional so'zlarni lingvistik modellashtirish muammosini hal etish uchun quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borish lozim:

- Katta hajmdagi annotatsiyalangan matn korpuslarini yaratish: Mashinalarni o'rgatish algoritmlarini o'rgatish uchun katta hajmdagi annotatsiyalangan matn korpuslari zarur.
- O'zbek tiliga moslashgan POS-tagger va WSD tizimlarini ishlab chiqish: Mavjud POS-tagger va WSD tizimlarini o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish kerak.
- Kontekstni chuqur tahlil qilish usullarini ishlab chiqish: So'zlarning ma'nolarini aniqlash uchun kontekstni chuqur tahlil qilish usullarini ishlab chiqish zarur (masalan, semantik rollarni aniqlash, frame semantics).

Jahon tilshunosligida semantik analizatorni ishlab chiqishda ko'p tadqiqotlar olib borilgan va bu amaliy tilshunoslikning murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Muammoning murakkabligi shundaki, so'zlarning ma'nolarini polifunksional so'zlarni aniqlashda so'z birikmalari bilan o'rganish kamlik qiladi, uning kontekstdagi ma'nolari bilan o'rganishni talab qiladi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, axborot qidiruv tizimida polifunksional so'zlarning o'rganilishi, semantik qidiruv tizimining mukammalashtirilishi bugungi kunning dolzarb masalasi hidoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent, 2008. – B. 33. – 100 b.
2. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1984. - B. 14. – 135 b.
3. Голуб И. Стилистика русского языка. Учеб. пособие // http: www.hi-edu.ru
4. G.Sh.Kahramonovna.O'zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari. Farg'ona, 2022. – 143 b.